



**JINOYAT PROTSESSIDA USHLAB TURISH INSTITUTI: O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI VA BELARUS RESPUBLIKASI QONUNCHILIGI  
QIYOSIY TAHLILI**

**Omondavlatova Sevinch Ilhom qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 2-bosqich talabasi*

[sevinchomondavlatova20@gmail.com](mailto:sevinchomondavlatova20@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida ushlab turish protsessual majburlov chorasi sifatida qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ushlab turishning huquqiy asoslari, qo'llash tartibi, muddatlari o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro huquq standartlari asosida shaxs erkinligi va qonuniylik kafolatlari tahlil qilinib, O'zbekiston va Belarus qonunchiligidagi o'xshash hamda farqli jihatlar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ushlab turish, protsessual majburlov chorasi, jinoyat protsessi, ehtiyot chorasi, qiyosiy-huquqiy tahlil, inson huquqlari, O'zbekiston Respublikasi, Belarus Respublikasi.*

**Annotation:** *This article provides a comparative legal analysis of detention as a procedural coercive measure in the criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan and the Republic of Belarus. The research examines the legal grounds, application procedures, time limits of detention. In addition, the study analyzes the guarantees of personal liberty and legality based on international legal standards and highlights the similarities and differences between the legislation of Uzbekistan and Belarus.*

**Keywords:** *detention, procedural coercive measure, criminal procedure, preventive measures, comparative legal analysis, procedural guarantees, human rights, Republic of Uzbekistan, Republic of Belarus.*

**Аннотация:** *В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ задержания как меры процессуального принуждения в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан и Республики Беларусь. В ходе исследования изучены правовые основания, порядок применения, сроки задержания. Кроме того, на основе международно-правовых стандартов проанализированы гарантии личной свободы и законности, а также выявлены сходства и различия в законодательстве Узбекистана и Беларуси.*

**Ключевые слова:** *задержание, меры процессуального принуждения, уголовный процесс, меры пресечения, сравнительно-правовой анализ, права человека, Республика Узбекистан, Республика Беларусь.*

Ushlab turish instituti jinoyat protsessida muhim o'rin tutuvchi protsessual institutlardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur majburlov chorasi shaxsning Konstitutsiya bilan kafolatlangan erkinligi va daxlsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ushlab turishni



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qo'llashning huquqiy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning obyektini O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa jinoyat protsessida ushlab turish institutining huquqiy tabiati, uni qo'llash tartibi hamda protsessual kafolatlar bilan bog'liq masalalardan iborat. Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligini qiyosiy tahlil qilgan holda ushlab turish institutini o'rganish hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-huquqiy hamda formal-yuridik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali O'zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida ushlab turish institutining huquqiy asoslari, uni qo'llash tartibi va protsessual xususiyatlari o'zaro taqqoslandi. Formal-yuridik metod yordamida esa mazkur institutga oid normativ-huquqiy hujjatlar va jinoyat-protsessual normalarning mazmuni tahlil qilindi.

Ushlab turish – jinoyat sudlov vazifalarini hal etishda, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda qo'llaniladigan, qisqa muddat jamiyatdan ajratgan holda holatda saqlab turishdan iborat bo'lgan majburlov choralaridan biridir. U gumon qilinayotgan shaxsning jinoiy faoliyatining oldini olish, dastlabki tergov va sudan bo'yin tovlashning oldini olish, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan harakatlarning oldini olish, shuningdek ushlangan shaxsning ushbu jinoyatni sodir etishda aloqador yoki aloqador emasligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxsга nisbatan ushlab turish tarzidagi majburlov chorasini qo'llanilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasi va Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 108-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan quyidagi asoslardan biri bo'lishi lozim: 1) shaxs jinoyat sodir etayotganda yoki uni sodir etgandan so'ng qo'lga tushishi; 2) jinoyatning shohidlari, jumaladan jabrlanuvchilar uni jinoyatni sodir etgan shaxs sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishi; 3) uning o'zida, kiyimida, oldida yoki uyida jinoyatning yaqqol izlari topilishi; 4) shaxsni ushbu jinoyat uchun gumonlanuvchi tariqasida jalb etish uchun asoslar mavjud bo'lishi, u qochmoqchi bo'lishi yoki doimiy yashash manzili va shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotlari mavjud bo'lmazligi.

Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxsni jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ushlab turish ichki ishlar organi yoki vakolatli organ tomonidan, shuningdek, muomalaga layoqatli shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Agar ushlab turish muomalaga layoqatli shaxs tomonidan amalga oshirilgan taqdirda, fuqaro bu haqida ushbu harakatni amalga oshirishdan avval yoki uni bajarganidan so'ng darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qilishi lozim yoxud shu yerda bo'lgan ichki ishlar yoki vakolatli shaxsга murojaat qilgan holda undan yordam olishi mumkin. Shaxs ushlangandan va ichki ishlar yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgandan so'ng, ushbu organ navbatchi xodimi yoki boshqa xodimi tomonidan darhol ushbu organ boshlig'ining ko'rsatmasiga asosan tuzilgan joyi va vaqti, shaxsning ushlab turilish asoslari, ushlangan shaxsning shaxsini aniqlashga doir ma'lumotlar ko'rsatilgan bayonnoma tuzilishi lozim. O'zbekiston



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 224-moddasi 3-qismiga asosan shaxsni ushlab chog'ida amalga oshiriladigan harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi lozim. Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi 108-moddasi 3-qismiga asosan shaxs jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ushlangan bo'lsa, 12 soat ichida jinoyat ishi qo'zg'atilishi haqida qaror qabul qilinishi lozim. Shaxs jinoyatni sodir etganlikda gumonlanib huquqni muhofaza qiluvchi organga olib kelganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 225-moddasining 3-qismiga asosan prokurorga shaxs ichki ishlar ishlar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organga olib kelingan vaqtdan boshlab 12 soat ichida, xuddi shuningdek, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 110-moddasi 3-qismiga asosan 24 soat ichida yozma shaklda xabar berilishi shart. Jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng shaxsni ushlab turish to'g'risidagi surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning qaroriga asosan shaxsni ushlab turishga yo'l qo'yiladi. Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan shaxs unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng 72 soat davomida ushlab turilishi mumkin.

	O'zbekiston Respublikasi	Belarus Respublikasi
Ushlab turish muddati	Ushlab turish muddati – 48 soat. Qo'shimcha 48 soatga uzaytirilishi mumkin.	Ushlab turish muddati – 72 soat.

Ushbu jadvalda O'zbekiston va Belarus Respublikasining protsessual tartibda belgilab qo'yilgan ushlab turish muddatlari keltirilgan. Unga asosan O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligi bilan belgilab qo'yilgan ushlab turish muddati 48 soatni tashkil etadi. Ammo surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan yetarli va zarur asoslar taqdim etilgan taqdirda, bu muddat yana 48 soatga uzaytirilishi mumkin. Belarus Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligi bo'yicha ushlab turish muddati 72 soatni tashkil etadi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ushbu muddat ichida jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan yetarli asoslarni taqdim etgan holda jinoyat ishi qo'zg'atish haqida qaror qabul qilishi lozim.

Shaxs biror jinoyatni sodir etganlikda ayblanib, unga nisbatan ushlab turish tarzidagi majburlov chorasi qo'llanilgan taqdirda uning oila a'zolariga, yaqin qarindoshlariga bu haqida xabar qilinadi. O'zbekiston respublikasi Jinoyat-kodeksi 217-moddasiga asosan shaxsga protsessual tartibdagi majburlov chorasi qo'llanilganligi haqida darxol, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 115-moddasiga asosan shaxsga ushlab turish tarzidagi majburlov chorasi qo'llanilganligi haqida uning oila a'zolari va yaqin qarindoshlariga 12 soat ichida xabar qilinadi. Agar jinoyat sodir etganlikda gumonlanib ushlab turilgan shaxs chet el fuqarosi bo'lgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 217-moddasi 2-qismiga O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligiga darxol, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 115-moddasiga asosan Belarus Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligiga bir sutka ichida xabarnoma yuborilishi lozim.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 112-moddasiga asosan agar shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan belgilangan vaqtda kelmasa, shuningdek, qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ammo uning qoidalari buzilgan taqdirda inoyat protsessini yurituvchi organ unga nisbatan ushlab turish tarzidagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror chiqarishga va qamoq ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Bu holatda qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilguniga qadar shaxs 72 soat davomida ushlab turilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi 234-moddasi hamda Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi 114-moddasiga asosan quyidagi asoslarga ko'ra quyidagi asoslarda shaxs ozod qilinishi mumkin: 1) jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon tasdiqlanmasa; 2) gumon qilingan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilish zarurati bo'lmasa yoki uni qo'llash sud tomonidan rad etilsa; 3) ushlab turish muddati tugallangan va unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilmagan bo'lsa. Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ozod qilish sifatida yana bir asos turi keltirilgan, ya'ni shaxsni ushlab turish chog'ida ichki ishlar organlari yoki vakolatli organlar tomonidan shaxsni ushlab turish chog'ida protsessual qoidalar buzilgan holatda amalga oshirilganligi aniqlansa, shaxs ozod qilinadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston va Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida ushlab turish instituti ning tsuhunchasi, maqsadi, shaxsni ushlab turish va ozod qilish asoslari bir xil. Ammo ulardagi ushlab turish va xabar qilish muddatlari qonunchilik normalarida belgilab qo'yilgan muddatlar asosida farqlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi normalariga asosan ushlab turish muddati uzaytirilishi mumkin, ammo Belarus Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida bunday qoida belgilab o'tilmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-Protsessual kodeksi
2. Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi
3. Jinoyat-protsessual huquqi (umumiy qism) darslik/ Mualliflar jamoasi.-T.:TDYU nashriyoti, 2025
4. Г. А. Павловец & Т. Н. Уласевич. ЗАДЕРЖАНИЕ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ - 2020